



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
BUYRUQ**

2023-yil "20" iyul

121 -son

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi"ni belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning quyi organlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari hujjatlarini rasmiylashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibini belgilash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 2-ilovaga;

korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 3-ilovaga;

korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 26-maydag'i 89-sonli buyrug'inining 5-ilovasi 29-bandii ikkinchi qismidagi "20" raqami "35" raqamiga almashtirilsin.


3. Vazirlik markaziy apparati, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlami tashkil etish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B. Musaev



Xorazm viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi

Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining
2023-yil “20” iyuldag
121-son buyrug‘iga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda “Vazirlik” deb yuritiladi) ning sohadagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishning nazorat qilinishini ta’minalash, aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish, vazirlik va uning quyi organlari tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalariga ko‘ra hujjatlarni rasmiylashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlik va uning quyi organlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 322 va 326-moddalariga muvofiq nazorat tadbirlari natijasiga ko‘ra jinoyat alomatlari tarkibi aniqlangan taqdirda bunday materiallarni, dalolatnoma yoki ma’lumotlarni ular rasmiylashtirilgandan so‘ng 30 kundan kechiktirmasdan tegishli mansabdor shaxslarning harakatlariga huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilishi lozim.

3. Quyidagilar jinoyat tarkibi alomatlarni aniqlash mezoni hisoblanadi:
bila turib, noqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish, shundan qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa, ayolni hamiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganlarni bila turib, uni ishga olishdan g‘ayri qonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish holatlari bo‘yicha;

voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga yoki odob-axloqiga ziyon yetkazilishi mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish, shundan qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etish;

qonunda nazarda tutilgan xollardan tashqari, mehnatga biron-bir shaklda ma’muriy tarzda majburlash, shunday qilmishlar uchun ma’umuriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etish;

texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalarga rioya etilishi uchun mas’ul bo‘lgan shaxs tomonidan buzilishi o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir tan jarohati yetkazilishi, o‘lim va boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan holatlarga yo‘l qo‘yilishi;

aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan o‘zganining mulkini o‘zlashtirish yoki o‘zlashtirish yo‘li bilan talon-taroj qilishni bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ortiq miqdorda hamda ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda sodir etish;

mansab soxtakorligi va hujjatlarni qalbakilashtirish;
mansabdor shaxslarning harakatlarida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi alomatlari mavjud bo‘lgan boshqa hollar.

4. Vazirlik va uning quyi tizimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlariga yuboriladigan hujjatlar ro'yxati:

a) quyidagilarni majburiy ko'rsatgan holda dalolatnama yoki ma'lumotnama; nazorat obyektining to'liq nomi, nazorat tadbiri bilan qamrab olingan davr uchun mas'ul bo'lgan mansabdar (mas'ul) shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

qonun hujjatlarning buzilgan normalarini aniq ko'rsatgan holda taftish, tekshirish va o'rghanish paytida aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklar faktlari (o'qilganda qonun hujjatining qaysi talabi, moddasi va bandlari buzilganligini aniq tushunish bo'lishi uchun kamchilik yoki qoidabuzarlikning har bir turi yetarli darajada aks ettirilgan holda bayon etilishi hamda dastlabki aniqlangan qoidabuzarliklar summasini matematik usulda hisoblash imkonini bo'lishi kerak);

b) mas'ul shaxs bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik haqidagi shartnomalarning tegishli tarzda tasdiqlangan nusxalari (mavjud bo'lgan taqdirda);

v) nazorat obekti ustavining (nizomining) nusxasi;

g) qonun hujjatlarini buzilganligini tasdiqlovchi moliya-buxgalteriya, to'lov va boshqa hujjatlarning asli yoki tegishli tarzda tasdiqlangan nusxalari (hujjatlarning asli yoki tasdiqlangan nusxalarini taqdim qilish imkoniyati bo'lmaganda hujjatlarning ko'chirma nusxalarini taqdim qilinadi);

d) mansabdar (mas'ul) shaxslarning ularga qo'yilgan qonunbuzilishlar mazmuni bo'yicha nazorat tadbiri davomida (yakuni bo'yicha) taqdim etgan yozma tushuntirishlarining (e'tirozlarining) asl nusxalari yoki nazorat obyekti mansabdar (mas'ul) shaxslarining aniqlangan qonunbuzilish faktlari bo'yicha tushuntirish berishdan bosh tortganligi to'g'risidagi dalolatnomalar;

y) nazorat obyektining mansabdar (mas'ul) shaxsi tomonidan keltirilgan vajlari (yozma e'tirozlar), qonunbuzilishlar fakti bo'yicha tuzilgan mansabdar shaxs (shaxslar)ning xulosasi;

j) nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnama yoki ma'lumotnomalarning bir nusxasi nazorat obyekti mansabdar shaxsi ushbu hujjatlarni imzolashdan yoki qabul qilishdan bosh tortgan hollarda nazorat obyektiga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Shuningdek, nazorat tadbirida aniqlangan qoidabuzarlik va kamchiliklar faktlarini tasdiqlash maqsadida hujjatlarga boshqa materiallar ham ilova qilinishi mumkin.

5. Nazorat tadbiri materiallari huquqni muhofaza qiluvchi organlariga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri yoki uning o'rribosarlari, hududiy bosh boshqarmalar, tasarrufiy tashkilotlar hamda tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari tomonidan aloqa xati bilan yuboriladi.

6. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning quyi tizimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlari so'roviga ko'ra nazorat tadbiriga taaluqli bo'lgan boshqa hujjatlar ham taqdim qilinadi.

7. Mazkur Nizom talablariga so'zsiz rioya etilishiga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining o'rribosarlari (tegishli holat bo'yicha), Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari, tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari, tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari shaxsan mas'uldir.

8. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

zimmasiga qonun hujjatlari bilan yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar vakillariga ko'mak beradi.

Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining
2023-yil “20” iyuldaggi
121-son buyrug‘iga
2- ilova

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy va tasarrufiy tashkilotlarga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish

REGLAMENTI

1-bob. Umumiy koidalar

1. Mazkur Reglament Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy va tasarrufiy tashkilotlarga (keyingi o‘rinlarda - Tashkilot) korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarini ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Tashkilotdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Tashkilot rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Ishonch telefoni – Tashkilotga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali Tashkilotdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsnинг mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsnинг o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Tashkilot xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilot nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taaluqli xabar – Tashkilotdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – Tashkilot bilan mehnat munosabatlariiga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Tashkilot korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

Konfedensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Tashkilotning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, extiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Tashkilot uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – Tashkilot aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishlash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Tashkilot xodimi xabarning mazmunidan qat’i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Tashkilot tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta'sir choralarini qo'llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Tashkilot aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;
Tashkilotning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;
Tashkilotning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/>_____)) orqali;
Tashkilotning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);
Tashkilotning telegram boti (@_____bot)
Tashkilotga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;
huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;
mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.
6. Tashkilot aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagisi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi, Tashkilot binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish

7. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o'rinnarda – Ichki nazorat tuzilmasi) Tashkilotning aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

8. Tashkilotning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sон qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom va Tashkilotning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun Tashkilot rahbariga chiqariladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- Tashkilotning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;
- Tashkilotning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);
- Tashkilotga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Tashkilotning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari hamda telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo'li bilan yoki telefon orqali bog'lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Tashkilot rahbariga kiritadi.

Ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushmanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyoziuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalilaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfedensialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Tashkilot rahbari taaluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Tashkilotning Ichki nazorat tuzilmasiga topshiriq tushiradi.

12. Tashkilotning Ichki nazorat tuzilmasi taaluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Tashkilotda korrupsiya oид harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o'rnlarda – Reestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

13. Tashkilot murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiaviy xarakatlar to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Tashkilotning ma'sul xodimi, imkon mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Tashkilotga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'ana olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lмаган taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'ргана olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

13. Tashkilot xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiaviy huquqbazarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiya qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

14. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi

qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo‘lmagan muddatga saqlanishi kerak.

15. Taaluqli xabar tashkilotning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) bo‘linma rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ulni (mavjud bo‘lsa) kelib tushgan xabar to‘g‘risida xabardor qiladi, ular o‘z navbatida ushbu xabarni Tashkilotning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasiga yuboradi. Ichki nazorat tuzilmasi olingan xabarni 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko‘rib chiqadi.

16. Tashkilotning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari o‘zlarining Reestrini yuritadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlар haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish

17. Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas’ul xodimlari yoki Tashkilot rahbari topshirig‘iga asosan boshqa bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

18. Korrupsiyaviy harakatlari to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

19. Taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi xodimi dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taaluqlilagini tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma’lumotning Tashkilot tizimiga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbazarlikka va (yoki) manfaatlar to‘qnashuviga tegishlilagini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

20. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat‘i nazar, bu haqdagi axborot Reestrga kiritiladi.

21. Agar Ichki nazorat tuzilmasi xodimi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Tashkilotning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o‘tkazilishi lozim.

22. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlari va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumot hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Ichki nazorat tuzilmasi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

23. Taaluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish Tashkilotga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari, tashkilotning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

24. Murojaatga javob Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tayyorlanib, tashkilot rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

25. Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralarini ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

26. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

27. Reestr dan Ichki nazorat tuzilmasi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Tashkilot rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinnbosari foydalanishi mumkin.

28. Reestr ma'lumotlari asosida Ichki nazorat tuzilmasi har chorakda Tashkilot rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy harakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;

taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

30. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy va tasarrufiy tashkilotlarga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish reglamentiga ilova

Tashkilotda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish REESTRI

Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining
2023-yil “20” iyuldag
121-son buyrug‘iga
3-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

Birinchi bo‘lim. Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish Vazirlikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Vazirlik tizimida qonuniylikni ta’minlash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash hamda korrupsiyaga karshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish Dasturning asosiy maqsadidir.

3. Quyidagilar Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korrupsiyaga karshi kurashishda mehnat organlari tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni baholash va boshqarish;

mehnat organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, tizimda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlashga, ularni oldini olishga va chek qo‘yishga, shuningdek ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doyr chora- tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida halqaro hamkorlikni ta’minlash.

Ikkinch bo‘lim. Dasturning asosiy yo‘nalishlari
2-bob. Vazirlik tizimining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini
olishga doir tashkiliy chora-tadbirlar

4. Mehnat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarilishda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi mezonlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish.

5. Mehnat organlari xodimlarining faoliyatini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan onlayn tartibda baholash tartibini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

6. Mehnat organlari faoliyatida korrupsiya keltirib chiqarish xatarlari mavjud bo‘lgan sohalarni aniqlash maqsadida fuqarolar o‘rtasida Vazirlikning telegram kanalida va “Facebook” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida “Korrupsiyani birga yengamiz” mavzusida ijtimoiy so‘rovni o‘tkazish va so‘rov natijalarini tahlil qilib uning omillarini bartaraf etishga qaratilgan “yo‘l xaritalarini” ishlab chiqish.

7. Vazirlik tizimida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni aniqlash va boshqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

8. Vazirlik saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda mehnat organlaridagi vakant ish o‘rinlari hamda nomzodlarga qo‘yilgan talablar hakida ma’lumotlar joylashtirib borilishini ta’minalash.

9. Mehnat organlari xodimlarining attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida jamoatchilik vakillari ishtirokini, shuningdek, videoyozuv tarzda o‘tkazilishini joriy qilish orqali shaffoflikni ta’minalash.

10. Mehnat organlarida ishlayotgan xodimlarni joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha masalalarni qayta ko‘rib chiqish. Bunda uzoq vaqt davomida bitta lavozimda ishlab samarali faoliyat olib borayotgan xodimlarni aniqlash va ularni kamida bir pog‘ona yuqoriq lavozimlarga o‘tkazish amaliyotini qo‘llash bo‘yicha takliflar tayyorlash.

11. Mehnat organlari xodimlarining ijtimoiy ahvolini o‘rganib borish tizimini joriy etish. Bunda kam ta’minalangan, nogironligi bo‘lgan va ko‘p bolali xodimlar ro‘yxatini shakllantirish va ularning holidan xabar olib turish hamda zaruriyatga ko‘ra, moddiy jihatdan ta’minalash choralarini ko‘rib borish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

12. Mehnat organlarida tovar-moddiy boyliklarning adolatli taqsimlanishini ta’minalash mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda xodimlarning ish hajmi va ehtiyojidan kelib chiqib, xizmat avtomobilari va boshqa moddiy boyliklardan foydalanish tartibini belgilash.

13. Davlat xaridlari bo‘yicha har bir tovar pozitsiyasi kesimida xarid narxlarini viloyatlar va respublika bo‘yicha tahlil qilib borish, narxlarni eng maqbul bo‘lishiga erishish.

14. Mehnat organlari tizimida xodimlarga haq to‘lash va hisob-kitoblarning to‘g‘riligini monitoring qilish imkoniyatini yaratish, xodimlar uchun shikoyatlar berish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha takliflar

tayyorlash.

15. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tarkibiy bo‘linmalarining moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni (davlat xaridları bilan bog‘liq shartnomalar r o‘yxatini) vazirlik hamda mehnat organları veb-saytlarida e’lon qilib borish.

16. Mehnat organları faoliyatida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida takliflar tayyorlash.

17. Mehnat organları tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va tahlil qilish. Bunda murakkab bo‘lgan davlat xizmatlarini soddallashtirish, korrupsiyaviy bo‘shliqlari mavjud bo‘lgan normalarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

3-bob. Vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish

18. Vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va tarqatish.

19. Mexnat organları xodimlariga korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlash va tarqatish.

20. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida ijtimoiy videoroliklar tayyorlash hamda korrupsiya, halollik, tog‘rilik, qonunga hurmat, adolat tantanasi mavzularida targ‘ibot materiallari, didaktik materiallar, multiplikatsion filmlar tayyorlash.

21. Mehnat organlarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” tadbirlarini tashkil qilish.

4-bob. Korrupsiyaga oid huququzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish hamda imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huququzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash

22. Vazirlikning veb-saytida xodimlar ustidan shikoyat qilish imkonini beruvchi maxsus sahifa ochish, kelib tushgan shikoyatlarni muntazam tahlil qilish va natijalari bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

23. Mehnat organları ma’muriy binolarida jismoniy va yuridik shaxslar yoki ularning vakillarini qabul qilishda video va audioga yozib olish tizimini joriy etish orqali shikoyatlar kelib tushishini oldini olish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

24. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida korrupsiyaning holatini, uning jihatlarini, ko‘lamini, o‘sish sur’atlarini hamda tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib

borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini Vazirlik markaziy apparat, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar kesimida o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish.

25. Mehnat organlarida mansabi yuqoriroq bo‘lgan xodimning shaxsiy ishlarini (ko‘chadagi ishlarni bitirtirishi, farzandini ta’lim muassasasidan olib keltirishi va x.k.) amalga oshirishi uchun o‘zidan pastroq lavozimda bo‘lgan xodimga ko‘rsatma bergenligi yuzasidan monitoring o‘tkazish rejasini ishlab chiqish va natijasi bo‘yicha tegishli mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish.

26. Vazirlikka tizimidagi band bo‘lman aholiga xizmat ko‘rsatuvchi Ishga marhamat “Monomarkaz” va o‘quv muassasalariga hujjatlarni qabul qilishning elektron tizimni yaratish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

27. Xodimlari malakasini oshirish markazi o‘quv kurslari yakuni bo‘yicha tinglovchilar o‘rtasida mashg‘ulotlarni olib borgan professor-o‘qituvchilar haqida anonim so‘rovnomalar o‘tkazish.

28. Mehnat organlariga murojaat etishda elektron navbat tizimini joriy etish.

29. Mehnat organlariga murojaat qiluvchilar tomonidan ko‘rsatilgan xizmat sifatini baholash tizimini joriy etish.

30. Hududiy va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari bilan har chorakda kamida bir marta Vazirlik tomonidan profilaktik suhbatdan o‘tkazish tartibini joriy etish.

31. Mehnat organlarida xizmatlarning maxfiyligini saqlagan holda real vaqt rejimidagi masofaviy markazlashtirilgan audio va videokuzatuv tizimini joriy etish.

32. Mehnat organlari mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid xatti-harakatlar haqida xabar bergen shaxslarni mukofotlash tartibini joriy etish.

33. Vakolatli mehnat organlari tomonidan boshqa tashkilotlarda o‘rganish o‘tkazishda odob-axloq qoidalarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash. Bunda o‘rganish o‘tkazilayotgan tashkilot xodimlari bilan birga umumiy ovqatlanish joylariga borishni ta’qilashni nazarda tutish.

34. Xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlarni belgilangan tartibda qoplashning qat’iy mexanizmini belgilash. Bunda hududiy va tasarrufiy tashkilotlarga kompleks tekshirish uchun yuborilgan xodimlarga xizmat safari xarajatlari uchun ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish hamda yo‘l xarajatlari, mehmonxona va ovqatlanishga ishlatilgan mablag‘larni faqatgina xodimning plastik kartochkasidan to‘langanligini tasdiqlovchi cheklar taqdim etilganda ushbu xarajatlarni qoplab berish tizimini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish.

Uchinchi bo‘lim. Dasturning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar

35. O‘zbekistan Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

Vazirlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to‘qnashushi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olinishi;

Vazirlik tizimidagi tashkilotlar faoliyatining ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas’uliyatining yanada ortishi;

36. Mehnat organlarining mansabdar shaxslari va boshqa xodimlari faoliyati samaradorligi yangi mezonlar asosida baholanishi;

37. Mehnat organlari xodimlarining kasbiy xamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqning yuksalib borishi;

38. Mehnat organlarining faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta’minlash.

Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining
2023-yil “20” iyuldaggi
121-son buyrug‘iga
4-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi
tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish
QOIDALARI**

I.Umumiy qoidalar

1 . Mazkur Qoidalalar mehnat organlari va muassasalari tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2 . Mazkur qoidalarda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi samaradorligini baholash hamda mehnat organlari va muassasalarining faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat yoki tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3 . Quyidagilar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi:

a) mehnat organlari va muassasalari faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

b) mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlaming yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillaming samaradorligini baholash;

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Vazirlikning korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish.

4. Mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha javobgar bo‘lib Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi hisoblanadi.

**II. Monitoring va nazorat qilish yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish
bo‘yicha chora-tadbirlar**

5. Monitoring va nazorat mehnat organlari va muassasalarida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar, yaxlit holda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan (keyingi o‘rinlarda - korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi) funksiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida mehnat organlari va muassasalarida joriy etilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

6. Mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha monitoring va nazorat qilinadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik, shu bilan birga, xalqaro qonunchilik va standartlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish, jumladan:

mehnat organlari va muassasalarini faoliyatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonun hujjatlari va yuqori turuvchi organlaming tavsiyalarini monitoring qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

b) mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi tizimining samaradorligini monitoring qilish, jumladan:

mehnat organlari va muassasalarining, jumladan, ular xodimlarining korrupsiyaviy harakatlarga aralashganligi haqidagi ma’lumotlar hamda kontragentlarida shunga o‘xhash ma’lumotlar mayjudligi yuzasidan ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish;

mehnat organlari va muassasalarini xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish;

mehnat organlari va muassasalarini xodimlari tomonidan Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini tanlov asosida monitoring qilish.

III. Korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibi

7. O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha qonunchilik va tavsiyalariga rioya qilinishini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har yili O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengash Ishchi organi tomonidan kiritilgan ko‘rsatmalarni o‘zgartirish va qo‘srimchalarning monitoringini amalga oshiradi. Monitoring natijalariga ko‘ra, Vazirlikning ichki hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi zarurligi haqida qaror qabul qilinadi;

• 8. Xalqaro va xorijiy tashkilotlaming korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tavsiyalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har yarim yilda kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xorijiy tashkilotlaming (BMT, ShHT, YeHHT va boshqalar) tavsiyalarini monitoring qiladi. Qo‘srimcha tarzda boshqa xalqaro standartlar va tavsiyalarini monitoring qiladi.

b) monitoring natijalaridan kelib chiqib va zarurat bo‘lganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Vazirlikning ichki hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida tegishli takliflarni tayyorlaydi.

9. Ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi mehnat organlari va muassasalarining Komplayens nazorat tizimi xodimlari hamda Vazirlik matbuot xizmati faol ko‘magida mehnat organlari va muassasalari, ularning bo‘linmalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g‘ayrihuquqiy, jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga (keyingi o‘rinlarda - relevant ma’lumot) jalb qilinganligi haqidagi ma’lumotlar mavjudligini aniqlash uchun ommaviy axborot vositalarini (milliy va xorijiy), shu jumladan, jurnallar, ro‘znomalar, Internet tarmog‘i va boshqa ommaviy axborot vositalarini doimiy asosda monitoring qiladi.

b) mehnat organlari va muassasalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tizim xodimlari hamda matbuot xizmati tomonidan aniqlangan relevant ma’lumot zudlik bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yetkaziladi;

v) ommaviy axborot vositalarida mehnat organlari va muassasalari, ularning bo‘linmalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g‘ayrihuquqiy, jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi haqidagi ma’lumotlar aniqlanganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i ushbu fakt haqida zudlik bilan Kambaga‘allikni qisqartirish va bandlik vaziriga xabar beradi va xizmat tekshiruvini tayinlaydi va (yoki) aniqlangan ma’lumotlarni mehnat organlarining faoliyatiga salbiy ta’sirini minimallashtirish, jumladan, Vazirlik tizimining nufuzini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

1) Mehnat organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimlari tomonidan har yarim yilda bir marta mehnat organlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimi bo‘yicha mazkur Qoidaning ilovasiga muvofiq birlamchi tadbirlami tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mehnat organlari va muassasalari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarga rioya qilinishini monitoring qilish belgilangan rejaga muvofiq tekshiruv shaklida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

11. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘iga ko‘ra mehnat organlari va muassasalarida ularning faoliyati bo‘yicha rejadan tashqari komplayens-tekshiruvlar o‘tkazilishi mumkin.

12. Komplayens-tekshiruvlar doirasida xodimlar tomonidan Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini nazorat qilish, sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni har yili baholanishi va avvalgi monitoring doirasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

13. Komplayens-tekshiruvlami yilda bir marotaba rejalahtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

har yili 25-yanvargacha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi mehnat organlari va muassasalarida komplayens-tekshiruvlarni o‘tkazish rejasini ishlab chiqadi;

reja bir kalendar yilga tuziladi va birmchi navbatda, mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Komplayens-tekshiruvlarni o‘tkazish rejasida:

a) tekshiruv sohasi (yo‘nalishi) - muayyan mehnat organi va muassasalarining tahlil qilinadigan ichki jarayonlari va (yoki) funksiyalari/yo‘nalishlari;

b) tekshiruv predmeti - ijrosi tekshirilishi lozim bo‘lgan mehnat organi va muassasalarining ichki hujjatlari;

v) tekshiruv davri;

g) tekshiruv turi (to‘liq yoki tanlov asosida);

d) tekshiruv usuli (masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri funksiyani bajarishga mas’ul bo‘lgan xodim bilan intervyu, hujjatlarni korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini tekshirish va h.k.) ko‘rsatiladi.

Reja 1-fevralgacha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

14. Komplayens-tekshiruvlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining tekshiruvlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

15. Komplayens-tekshiruvlar alohida holatlami hisobga olgan holda quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

a) komplayens-tekshiruv mehnat organi va muassasalarining jarayonlari/hujjatlarini tahlil qilish, shuningdek, muayyan chora-tadbirlar/funksiyalarni bajarilganligini tasdiqlash uchun zarur ma’lumot/hujjatlami so‘rashdan boshlanadi (masalan, xarid bo‘yicha hujjatlarni, arz qiluvchi bilan elektron yozishmalarni, kirish va chiqish hujjatlarini, buxgalteriya birlamchi hujjatlarni, xodimlarga oid ma’lumotlar, hisobga olish tizimidan yuklanmalar, fotomaterialllar, tasdiqlovchi hujjatlar);

b) so‘rov yuborilayotgan mehnat organi va muassasalari tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari so‘ralayotgan barcha hujjatlarni o‘z vaqtida va to‘liq taqdim etilishiga javobgar hisoblanadi;

v) so‘ralayotgan hujjatlar olinganidan keyin Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi jarayon va funksiyalarni ularning bajarilishi ichki hujjatlarga, jumladan, korrupsiyaga qarshi tamoyillar, talablar va tartib-taomillarga muvofiqligini tahlil qiladi. Shuningdek. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi mehnat organlari va muassasalari xodimlari harakatlarining qonuniyligini va ularga mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar jihatidan yo‘l qo‘yilishini tekshiradi;

g) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining komplayens-tekshiruvni o‘tkazayotgan xodimlari komplayens-tekshiruvni lozim darajada hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini va kuzatilishini, jumladan, quyidagilardan iborat bo‘lgan ish hujjatlarini rasmiylashtirish yo‘li bilan ta’minlaydi:

tekshiruv va tekshirilgan tartib-taomillar doirasida bajarilgan harakatlar haqidagi ma’lumot;

aniqlangan qoidabuzarliklar/kuzatuvarlar haqidagi ma’lumot;

komplayens-tekshiruvning xulosalari/natijalarini tasdiqlovchi fayllar/hujjatlar (so‘ralgan hujjatlaming nusxalari/skaner qilingan versiyalari);

16. Komplayens-tekshiruv Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining topshirig‘i va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i bilan uchinchi shaxslar tomonidan komplayens-tekshiruvni o‘tkazish tajribasiga ega bo‘lgan xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan shartnama tuzish orqali o‘tkazilishi mumkin,

17. Komplayens-tekshiruv natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy qismlardan iborat bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi haqida ma’lumotnoma-hisobot tuziladi:

kirish qismi: o‘tkazilgan komplayens-tekshiruv haqida ma’lumot (jarayonlar/funksiyalar, tekshirilayotgan davr, ishtirokchilar, muddatlar, nazorat tartib-taomillari, o‘rganilgan hujjatlar va h.k.) ko‘rsatiladi;

bayon qismi: tekshiruv davomida aniqlangan holatlar, tekshiruv tadbirdarini o‘tkazish natijalari va aniqlangan qoidabuzarliklar haqidagi ma’lumot aks ettiriladi;

qaror qismi: mehnat organlaridagi korrupsiyaga qarshi mavjud nazoratlar/tartib-taomillarning samaradorligi haqidagi xulosalar va (zaruratga ko‘ra) ichki jarayonlarni amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi choralarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

18. Monitoring va nazorat bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasiga ko‘ra Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziriga hisobot beradi.

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan monitoring va nazorat bo‘yicha chora-tadbirlar natijasiga ko‘ra ishlab chiqilgan tavsiyalar keyingi yilga mo‘ljallangan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi tizimida
korrupsiyaga qarshi tamoyillar
va talablarga rioya qilinishini
monitoring va nazorat qilish
qidalariga ilova

Mehnat organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish TIZIMI

	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Mehnat organlari va muassasalari xodimlariga odob-axloq qidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va taiablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (kunduzgi yoki sirtqi) o‘tkazilishining monitoringi.	Treninglar muntazamligi, ularning mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2	Korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish.	Mehnat organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillaming bilishini tanlov asosida tekshirish: 1) tekshiruvda qatnashish uchun mehnat organlari va muassasalari xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlaming eng kam soni - mehnat organlarida turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni 10 nafar);

- | | |
|--|---|
| | <p>2) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa - keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin);</p> <p>3) javoblar/qarorlami taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;</p> <p>4) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.</p> |
|--|---|